



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlar mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	



OLIJ TA'LIMDA MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNINI KOGNITIV KOMPETENSIYALARGA YO'NALTIRIB TASHKIL ETISH

Adashova Guljaxon Muxammadjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalar asosida tashkil etishning nazariy va metodologik jihatlarini keng yoritiladi. Mustaqil ta'limning shakli va metodlari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kognitiv kompetensiya, oliy ta'lim, tanqidiy fikrlash, metakognitsiya, refleksiya.

Abstract: This article covers the theoretical and methodological aspects of organizing the content of independent education in higher education on the basis of cognitive competencies. The forms and methods of independent education are analyzed from the standpoint of the modern competency-based approach.

Key words: independent education, cognitive competence, higher education, critical thinking, metacognition, reflection.

Аннотация: В данной статье широко освещаются теоретические и методологические аспекты организации содержания самостоятельного обучения в высшем образовании на основе когнитивных компетенций. Формы и методы самостоятельного обучения анализируются с позиций современного компетентностного подхода.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, познавательная компетентность, высшее образование, критическое мышление, метапознание, рефлексия.

KIRISH

XXI asr globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti davri sifatida tavsiflanadi. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassislardan faqat nazariy bilim emas, balki mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, analitik tafakkur va kreativ yondashuv kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni talab etmoqda [OECD, 2018, 45-b.]. Shu bois, oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish dolzarb masalaga aylandi. Mustaqil ta'lim oliy ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u talabani o'z bilimini mustaqil ravishda kengaytirishi, axborotni izlash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Mustaqil ta'limning to'g'ri tashkil etilishi talabani bilish faolligini oshiradi va uning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kredit-modul tizimiga o'tish, raqamli platformalarning joriy etilishi va ta'limning individuallashtirilishi mustaqil ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Kognitiv kompetensiya shaxsning bilimni egallash, qayta ishlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Zimmerman fikricha, o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish jarayoni talabani kognitiv rivojlanishida muhim omil hisoblanadi [Zimmerman, 2013, 27-b.]. Metakognitsiya esa talabani o'z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi [Flavell, 2014, 91-b.]. Shu nuqtai nazardan, mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish talabalarning chuqur bilimga ega bo'lishi, tanqidiy fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv kompetensiya va mustaqil ta'lim masalalari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilmoqda. XXI asr ta'lim konsepsiyalarida bilish jarayonini faollashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan ^[1]. OECDning "Education 2030" loyihasida kognitiv kompetensiyalar kelajak kasblari uchun asosiy tayanch sifatida e'tirof etiladi. Kognitiv rivojlanish nazariyasi asoschilari J. Piaget va uning izdoshlari bilish jarayonini assimilyatsiya va akkomodatsiya mexanizmlari orqali tushuntirgan bo'lsa-da, zamonaviy talqinlarda bu jarayon metakognitiv nazorat bilan boyitilgan ^[6].

Flavell metakognitsiyani shaxsning o'z fikrlash jarayonini anglash va boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi ^[7]. Bu yondashuv mustaqil ta'lim jarayonida ayniqsa muhim hisoblanadi.

Zimmerman o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish nazariyasida talabani mustaqil maqsad qo'yishi, strategiya tanlashi va o'z natijasini baholashi kognitiv kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi ekanini ta'kidlaydi ^[8]. Ushbu model mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Schleicher zamonaviy ta'lim tizimida chuqur o'rganish (deep learning) va kompleks muammolarni hal qilish ko'nikmalari asosiy maqsadga aylanganini qayd etadi ^[9]. Uning fikricha, mustaqil ta'lim jarayoni talabani analitik va kreativ tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarur. UNESCO hisobotlarida raqamli transformatsiya sharoitida mustaqil ta'limni individual ta'lim trayektoriyasi asosida tashkil etish tavsiya etiladi ^[4]. Raqamli platformalar va ochiq ta'lim resurslari talabani bilish faoliyatini faollashtirishda samarali vosita sifatida ko'riladi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham mustaqil ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalasi keng yoritilgan. Karimov mustaqil ta'limni talabani ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qiladi ^[10].

Irisboyeva esa kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda refleksiv faoliyat va muammoli topshiriqlarning ahamiyatini asoslab beradi ^[3].

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda mustaqil ta'limning mazmuni faqat nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan cheklanmasligi, balki talabani analitik tafakkuri, axborotni tanlash va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarurligi ta'kidlanmoqda ^[5].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi ekanini ko'rsatadi. Mazkur masala fanlararo yondashuvni talab etadi hamda psixologik, pedagogik va raqamli ta'lim konsepsiyalarining integratsiyasi asosida o'rganiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar integratsiyasi asosida olib borildi. Tizimli yondashuv asosida mustaqil ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq komponentlar – maqsad, mazmun, metod, vosita va natija birligi sifatida tahlil qilindi. Kognitiv kompetensiyalar esa bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, refleksiya va metakognitiv nazorat elementlari orqali tarkibiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida nazariy tahlil metodi qo'llanildi. 2010-2026-yillar oralig'ida nashr etilgan ilmiy manbalar o'rganilib, kognitiv kompetensiya va mustaqil ta'lim tushunchalarining evolyutsiyasi tahlil qilindi ^[2].

Manbalarni tanlashda dolzarblik, ilmiylik va amaliy ahamiyat mezonlari asos qilib olindi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy-taqqoslash metodi asosida xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari o'zaro solishtirildi. Jumladan, metakognitsiya nazariyasi ^[7] hamda o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish konsepsiyasi ^[8] mustaqil ta'lim mazmuni bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda konseptual modellash metodi qo'llanildi.

Mustaqil ta'limning kognitiv yo'naltirilgan modeli ishlab chiqilib, unda quyidagi komponentlar ajratildi:

- 1) kognitiv faoliyatni faollashtirish;
- 2) tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- 3) metakognitiv nazorat;
- 4) refleksiv baholash.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayoni kuzatilib, ularning analitik tafakkuri va o'z-o'zini boshqarish darajasi baholandi. Natijalar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida umumlashtirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda induksiya va deduksiya metodlari, shuningdek, interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida mustaqil ta'limni kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Tadqiqotning ishonchiligi triangulyatsiya usuli orqali ta'minlandi, ya'ni bir xil muammo bir nechta metodlar orqali o'rganilib,



natijalar o'zaro taqqoslandi. Bu ilmiy xulosalarning asoslanganligini oshirdi. Shunday qilib, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish talabning bilish faoliyatini faollashtirish, chuqur o'zlashtirish (deep learning)ni ta'minlash hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida bilimni reproduktiv o'zlashtirishdan ko'ra, uni tahlil qilish, umumlashtirish va amaliy vaziyatlarda qo'llash ustuvor ahamiyat kasb etadi ^[1].

Kognitiv kompetensiyalar tarkibiga analitik tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, axborotni tanlash va qayta ishlash, shuningdek metakognitiv nazorat kiradi. Zimmerman ta'kidlaganidek, o'z-o'zini boshqaruvchi o'qish jarayonida talaba maqsad qo'yadi, strategiya tanlaydi va o'z natijalarini baholaydi ^[8]. Shu bois mustaqil ta'lim topshiriqlari aynan ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Mustaqil ta'lim mazmunini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiq: muammolilik, tadqiqotchilik, refleksivlik, individuallashtirish, integrativlik. Muammolilik tamoyili talabning real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni bajarishini nazarda tutadi, bunday topshiriqlar talabning analitik fikrlashini faollashtiradi.

Tadqiqotchilik tamoyili mustaqil ta'lim jarayonida ilmiy izlanish elementlarini qo'llashni anglatadi, masalan, maqola tahlili, mini-tadqiqot loyihalari, empirik kuzatuvlar yoki ma'lumotlarni taqqoslash orqali talabning bilimni mustaqil izlash va asoslash ko'nikmalari shakllanadi, bu jarayon metakognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liq ^[7].

Refleksivlik tamoyili talabning o'z faoliyatini baholashi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi hamda o'z ustida ishlash strategiyasini belgilashini ta'minlaydi, refleksiv yozuvlar, portfoliolar va o'z-o'zini baholash varaqalari mustaqil ta'limning samarali vositalari hisoblanadi. Individuallashtirish tamoyili talabalarning individual qobiliyati, o'quv sur'ati va qiziqishlarini inobatga olishni talab etadi, raqamli ta'lim platformalari bu borada keng imkoniyat yaratadi, onlayn kurslar va adaptiv ta'lim tizimlari orqali talabning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish mumkin ^[4].

Integrativlik tamoyili esa turli fanlararo bog'liqlikni ta'minlashni anglatadi, masalan, iqtisodiyot, pedagogika va axborot texnologiyalari fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganish talabning kompleks fikrlashini rivojlantiradi. Mustaqil ta'limni kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirish mexanizmlaridan yana biri – baholash tizimini takomillashtirishdir, an'anaviy test sinovlari bilan cheklanib qolmasdan, ochiq savollar, loyiha himoyasi, analitik esse va taqdimotlar orqali talabning chuqur bilimi baholanishi lozim.

Shuningdek, muammoli o'qitish, keys-stadi, debat va loyiha asosida ta'lim metodlari mustaqil ta'lim jarayonida keng qo'llanilishi zarur, bu metodlar talabning tanqidiy fikrlashi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi ^[9]. Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt vositalari ham mustaqil ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin, masalan, adaptiv testlar, interaktiv simulyatsiyalar va onlayn tahlil platformalari talabning kognitiv rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirish oliy ta'lim tizimida chuqur bilim, analitik tafakkur va metakognitiv nazoratni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa talabalarning kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi va ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. An'anaviy reproduktiv o'qitish modelidan farqli ravishda, kognitiv yo'naltirilgan mustaqil ta'lim talabning bilimni chuqur anglashini, uni tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash, analitik tafakkur, muammoni hal qilish va metakognitiv nazorat ko'nikmalari shakllanganda talabalarning o'zlashtirish darajasi hamda kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshadi. Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish talabning o'z-o'zini boshqarish, maqsad qo'yish va natijalarni baholash qobiliyatini mustahkamlaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida mustaqil ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurati yanada dolzarblashmoqda. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va ochiq ta'lim resurslari talabning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Shu bois, mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli vositalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1) mustaqil ta'lim topshiriqlarini muammoli va tadqiqot xarakterida ishlab chiqish hamda ularni real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirish;

- 2) tanqidiy fikrlash va metakognitsiyani rivojlantiruvchi metodlarni (keys-stadi, loyiha asosida ta'lim, debat, refleksiv yozuv) muntazam qo'llash;
- 3) talabalarning o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish uchun portfoliolar hamda elektron monitoring tizimlarini joriy etish;
- 4) kognitiv kompetensiyalarni baholashning mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish hamda ularni reyting tizimiga integratsiya qilish;
- 5) professor-o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasiga alohida e'tibor qaratish;
- 6) fanlararo integratsiyani kuchaytirish orqali talabalarning kompleks va tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Umuman olganda, mustaqil ta'limni kognitiv kompetensiyalar asosida tashkil etish oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlash hamda ularning intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlar o'tkazish, statistik tahlillar asosida modelni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
2. OECD. Beyond Academic Learning: First Results from the Survey of Social and Emotional Skills. – Paris: OECD Publishing, 2021.
3. Irisboeva Y. Pedagogik kompetensiya nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2022.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023. – Paris: UNESCO, 2023.
5. World Bank. World Development Report 2020: Learning to Realize Education's Promise. – Washington, DC: World Bank, 2020.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2011.
7. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. – 2014.
8. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement. – New York: Springer, 2013.
9. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.